

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02. RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TURG‘UNOV NAUFAL SHUXRAT O‘G‘LI

**ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI KURSANTLARIDA O‘QUV
MOTIVATSIYASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Dostor of Philosophy (PhD)
on Psychological Scienses**

Turg'unov Naufal Shuxrat o'g'li

Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlarida o'quv motivatsiyasining psixologik xususiyatlari.....3

Тургунов Науфал Шухрат угли

Психологические особенности учебной мотивации курсантов Академии Министерства внутренних дел.....21

Turg'unov Naufal Shuxrat o'g'li

Psychological characteristics of learning motivation in cadets of the Academy of the Ministry of Internal Affairs41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02. RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TURG‘UNOV NAUFAL SHUXRAT O‘G‘LI

**ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI KURSANTLARIDA O‘QUV
MOTIVATSIYASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2025.1.PHD/P1221.raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasining www.uznpu.uz va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Dushanov Rustam Xujanovich psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	Abdurasulov Rustam Abduraimovich psixologiya fanlari doktori, professor Xaydarov Fazliddin Ikramovich psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Buxoro xalqaro universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02.raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

F.A.Akramova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari
doktori (DSc), professor

N.B.Atabayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor

Z.T.Nishonova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
psixologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda Ichki ishlar vazirligi ta'lim tashkiloti kursantlarining kasbiy shakllanishi, ularda o'quv faoliyati motivatsiyasining psixologik xususiyatlarini tadqiq etish va o'quv motivatsiyasi rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratish dolzarblashib bormoqda. Ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari va dunyoqarashini shakllantirish bilan birga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berish eng muhim vazifalar sifatida qaraladi. Ta'lim olish uchun yo'naltirilgan kapital – bu har qanday davlatning kelajagi uchun kiritilgan sarmoya – investitsiyadir. 2024-yilda e'lon qilingan davlatlar ta'lim darajasi bo'yicha dunyo mamlakatlari reytingida qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra¹, «193 ta davlatlar orasida O'zbekistonning ta'lim darajasi 44 o'rinda» qayd etilgan. Inson rivojlanish indeksi darajasi reytingida esa, «O'zbekiston 0,727 ko'rsatkich bilan 106-o'rinni egallagan»² ekanligi e'lon qilingan. Bu holat esa oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassislar o'quv motivatsiyasini takomillashtirish, yuksak malakali mutaxassis etib tayyorlashning psixologik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish muammosini dolzarblashtiradi.

Jahon ta'lim oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida malakali, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, sifatli kadrlar tayyorlash, Ichki ishlar vazirligi oliy ta'lim tashkiloti kursantlarining kompetentligi masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada Ichki ishlar vazirligi ta'lim tashkiloti kursantlarining o'quv faoliyati motivatsiyasini kuchaytirish, o'quv motivatsion sohasining psixologik xususiyatlarini o'rganish, o'quv faoliyatiga integrativ ta'sirini psixodiagnostik vositalar yordamida aniqlash, ilmiy faoliyatga ta'sir etuvchi psixologik omillar va psixologik ta'sir usullarini istiqbolda ilmiy tadqiq etishga e'tibor qaratish zarurati dolzarb ahamiyatli bo'lib qolmoqda.

Yangi O'zbekistonda keyingi yillarda yuksak malakali mutaxassislar o'quv motivatsiyasini yuksaltirish, ichki ishlar xodimlarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish hamda ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, yoshlar uchun ochiq va sifatli o'qitish tizimini qaror toptirish, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal bilim olishini ta'minlash, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish»³, «...mamlakatimiz xavfsizligi, mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq pragmatik faol tashqi siyosat olib borish»⁴ ustuvor vazifalar sifatida belgilanganligi mazkur muammoni ilmiy tadqiq etishda zarur asos bo'la oladi. Bu esa O'zbekiston aholisi tinch-totuv hayot kechirishini ta'minlashga xizmat qiladi.

¹Рейтинг стран мира по уровню расходов на образование. http://www.nationmaster.com/graph/edu_edu_spe-education-spending-of-gdp

² Рейтинг стран мира по уровню человеческого развития. <https://gtmarket.ru/ratings/human-development-index>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" <http://lex.uz/docs/3107036>

⁴ <https://lex.uz/docs/3797625>

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi 837-son «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida» Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida», 2018-yil 4-avgustdagi PF-3898-son «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xizmatchilarining ma‘naviy-ma‘rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida» Farmonlari, 2017-yil 1-maydagi PQ-2940-son «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlashda ularning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2019-yil 13-fevraldagi PQ-4190-son «2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori va faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganganlik darajasi. O‘zbekiston psixolog olimlardan F.A.Akramova, B.S.Abdullayeva, G.B.Babasheva, M.G.Davletshin, U.Y.Latipova, Z.T.Nishonova, F.I.Haydarov, I.M.Xaydarov va boshqalar tomonidan o‘quv faoliyat motivatsiyasini ijtimoiy-psixologik masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.B.Brushlinskiy, L.Vigotskiy, P.Galperin, V.P.Deliya E.V.Sinisina va boshqa olimlar tomonidan o‘quv motivatsiya fenomeni ilmiy tadqiq etilgan.

Xorijlik psixolog olimlardan D.H.Dodd, R.E.Fancher, J.Gilford, D.Mc Clelland, U.Neisser, W.Schneider, S.Spearman, E.P.Torrance, M.A.Wollach, N.Kogan va boshqalar tomonidan talabalarning motivatsion sohasini rivojlantirish muammolari ilmiy tadqiq etilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsion tadqiqot O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining «Psixologiya tarixini o‘rganish, umumiy psixologiya mazmunini o‘zlashtirish, shaxs psixologiyasini tasniflash, psixofiziologik tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, tibbiy va kasb psixologiyasi qonuniyatlarini o‘rganish, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya hamda yosh davrlari va pedagogik psixologiyaning konseptual asoslarini tadqiq qilish» nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2021-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi. Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlarida o‘quv motivatsiyasining psixologik xususiyatlarini tadqiq qilish hamda o‘quv faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi shaxsiy xususiyatlarini aniqlash orqali ularning kasbiy va psixologik rivojlanishi bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

Ichki ishlar vazirligi akademiyasi turli bosqich va ixtisosliklarda tahsil olayotgan kursantlarning yetakchi o‘quv motivlarining psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etish;

kursantlarning o‘quv faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi shaxsiy xususiyatlarini aniqlash;

Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlarining o‘quv motivatsiyasini takomillashtirish modelini ishlab chiqish;

Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlarida o‘quv motivatsiyasini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida kursantlarining o‘quv motivatsiyasining psixologik xususiyatlarini aniqlash jarayoni olingan bo‘lib, Ichki ishlar vazirligi akademiyasida tahsil olayotgan 336 nafar kursantlar respondentlar sifatida jalb qilingan.

Tadqiqotning predmeti. Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlarida o‘quv motivatsiyasini takomillashtirishning psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda suhbat, kuzatish, kontent tahlil metodlari, N.G. Lusnakovning «O‘quv motivini baholash» metodikasi, A.A. Rean va V.Y. Yakuninlarning «Talabalarning o‘quv faoliyati motivlarini o‘rganish» metodikasi, A.G. Maklakov va S.A. Chermyaninlarning «Moslashuvchanlik» ko‘p darajali shaxs so‘rovnomasi, V.V. Sinyavskiy va V.A. Fedoroshonlarning «Tashkilotchilik va kommunikativ qobiliyatlarni aniqlash» metodikasi hamda R.B. Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish» so‘rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistik metodlardan: Kruskol-Uolisning H-mezoni, Styudentning t-mezoni va K.Pirson r-korrelyatsiya koeffitsenti orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlaridagi «muvaffaqiyatga intilish» va «kasbni egallashga intilish» o‘quv motivatsiyalari ta’lim jarayoni va kasbiy tasavvurlariga bog‘liq ravishda yetakchi ekanligi asoslangan;

Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlari o‘quv motivatsiyasining shakllanganligi «axloqni me’yorlanganligi» va «tashkilotchilik» bilan integral rivojlanishi tufayli professional motivatsiyaning ustuvor namoyon bo‘lishi bog‘liq ekanligi dalillangan;

Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlari o‘quv motivatsiyasining shakllanganligi «axloqni me’yorlanganligi», «tashkilotchilik», «ustunlikka intilish», «ijtimoiy etuklik», «ijtimoiy mardlik», «o‘ziga ishonch» jihatlari bilan integral rivojlanishi tufayli yuqori motivatsiyaning ustuvor namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq ekani dalillangan.

kursantlarda o'quv motivatsiyasini rivojlantirish modeli ta'lim jarayonidagi kichik guruhlar tamoyiliga muvofiq trening texnologiyalarini integrativ qo'llash mexanizmlari asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kursantlarning o'quv motivatsiyasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarga asoslanib, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlarida o'quv motivatsiyasini takomillashtirishga qaratilgan psixokorreksion dastur ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llangan;

Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlarining o'quv motivatsiyasining takomillashtirishga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

«Psixolog maslahati» loyihasi orqali tadqiqot jarayonida olingan ilmiy va uslubiy natijalar asosida «o'quv motivatsiyasini takomillashtirish» bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Tadqiqotning natijalarining ishonchliligi tadqiqot resrondentlarining yetarlicha reprezentativligi; olingan empirik miqdoriy ko'rsatkichlarning matematik statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilingani; tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan asoslangani, xalqaro miqyosda e'tirof etilgan metodikalar vositasida o'rganilgani, empirik izlanishlar nazariy asoslab berilgani va olingan natijalar aniq matematik-statistik metodlar va ma'lumotlarni qayta ishlash dasturi yordamida korrelyatsion qayta ishlangani va shu asosda psixologik interpretatsiya qilingani, xulosa, taklif, tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani; olingan natijalar keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinib, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlari o'quv motivatsiya omillarini tadqiq qilish modeli ishlab chiqilgani, o'rganilayotgan muammoni ilmiy jihatdan ochib berish ichki ishlar sohasida kadrlar tayyorlashga doir oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda, kursantlarning o'quv motivatsiyasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan tajribaviy, empirik ma'lumotlardan Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlarining o'quv faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda tayyorlangan trening dasturidan ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirishda, nazariy umumlashma va tahlillardan kursanlarning o'quv motivatsiyasini o'ziga xos ijtimoiy-psixologik samaradorlogini tadqiq qiluvchi metodikalardan foydalanishda, kursantlar bilan olib boriladigan psixodiagnostik va korreksiyalash ishlar yo'nalishini aniqlashtirishda, shuningdek «Kasbiy psixologiya», «Pedagogik psixologiya» fanlaridan o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning natijalarining joriy qilinishi. Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlarida o'quv motivatsiyasining psixologik xususiyatlarini tadqiq etish asosida:

Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlaridagi «muvaffaqiyatga intilish» va «kasbni egallashga intilish» o'quv motivatsiyalari ta'lim jarayoni va kasbiy

tasavvurlariga bog'liq ravishda yetakchi ekanligi asoslangan ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-415-son buyrug'i bilan «Kasb psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025- yil 16 iyundagi PM-415-a son ma'lumotnomasi). Natijada, kursantlarning o'quv faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash imkoniyati kengaytirilgan;

Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlari o'quv motivatsiyasining shakllanganligi «axloqni me'yorlanganligi» va «tashkilotchilik» bilan integral rivojlanishi tufayli professional motivatsiyaning ustuvor namoyon bo'lishi bog'liq ekanligi dalillashga oid O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-415-son buyrug'i bilan «Kasb psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-415-a son ma'lumotnomasi). Natijada, kursantlarning o'quv motivatsiyani takomillashtirish psixotexnologiyalari ishlab chiqilgan;

Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlari o'quv motivatsiyasining shakllanganligi «axloqni me'yorlanganligi», «tashkilotchilik», «ustunlikka intilish», «ijtimoiy etuklik», «ijtimoiy mardlik», «o'ziga ishonch» jihatlari bilan integral rivojlanishi tufayli yuqori motivatsiyaning ustuvor namoyon bo'lishi bilan bog'liq ekani dalillashga oid takliflar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-415-son buyrug'i bilan «Kasb psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-415-a son ma'lumotnomasi). Natijada, kursantlarni yuqori darajadagi o'quv motivatsiyasini shakllantirish psixotexnologiyalari ishlab chiqilgan.

kursantlarda o'quv motivatsiyasini rivojlantirish modeli vizualizatsiyalash, o'qitish usullari, ta'limga nisbatan ichki motivatsiya negizida namoyon bo'lishi tufayli, muammoli ta'lim, loyiha faoliyati, didaktik trening texnologiyalarini integrativ qo'llash mexanizmlari asosida takomillashtirish asosidagi takliflar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-415-son buyrug'i bilan «Kasb psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-415-a son ma'lumotnomasi). Natijada kursantlarda o'quv motivatsiyasini optimallashtirishga mo'ljallangan psixologik o'quv-treninglar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 5 ta xalqaro va 7 ta ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqotning natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola respublika jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 140 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, shuningdek tadqiqot natijalarining ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi va e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **«Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlarida o'quv motivatsiyasining nazariy-metodologik talqini»** deb nomlanib, uzoq va yaqin xorijlik hamda mamlakatimiz olimlarining mavzuga oid nazariy qarashlari umumlashtirilgan.

Mazkur bobda zamonaviy psixologiyada o'quv motivatsiyani o'rganish muammosi, motivatsiya holatini optimallashtirish muammosini nazariy manbalarda talqin etilishi psixologik tadqiqot predmeti sifatida ekanligi keng ilmiy-nazariy, tarixiy jihatdan sharhlab o'tilingan. Ilmiy manbalarda respublikamiz psixolog olimlaridan F.A.Akramova, B.S.Abdullayeva, G.B.Babasheva, M.G.Davletshin, U.Y.Latipova, Z.T.Nishonova, F.I.Haydarov, mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan - K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.B.Brushlinskiy, L.Vigotskiy, P.Galperin, V.P.Deliya E.V.Sinisina, xorijlik psixolog olimlardan D.H.Dodd, R.E.Fancher, J.Gilford, D.Mc Clelland, U.Neisser, W.Schneider, S.Spearman, E.P.Torrance, M.A.Wollach, N.Kogan tomonidan o'quv motivatsiya bilan bog'liq masalalari ilmiy tadqiq etilganligi ushbu bobda keng ochib berilgan, muayyan xulosalar chiqarilgan.

O'rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, o'quv motivatsiyasini o'rganish va uni optimallashtirishning psixologik imkoniyatlarini empirik jihatdan o'rganish va shu o'rganish natijalari asosida ilmiy xulosalarni shakllantirish va kelajakda psixologiya fani uchun muhim bo'lgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish muhimligi asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning **«Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlarida o'quv motivatsiyasi darajasining psixologik xususiyatlari»** deb nomlangan ikkinchi bobi o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning empirik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodikalarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, tajriba guruhlarining dastlabki natijalar tahlili o'z aksini topgan.

Tadqiqotning metodik tavsifi diagnostik usullari (anketa so'rovnomasi, psixodiagnostik usullar, matematik statistik tahlil usullar), tadqiqotning tashkil etilishi keltirilgan. Tadqiqotimizning diagnostik qismida dastlab anketa so'rovnomasi o'tkazildi. Anketa so'rovnomasini o'tkazishdan maqsad, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlari tayyorgarlining turli bosqich va ixtisosliklarda o'quv motivatsiyasi dinamikasi aniqlash uchun dastlabki diagnostik tahlil olib borildi. N.G.Luskanovanning «O'quv motivini baholash» metodikasi 10 ta savoldan iborat

bo‘lib, o‘quv motivatsiyani yuqori, past, o‘rta darajasini aniqlab olishga yordam berdi. 1-jadvalga qarang.

1-jadval

Turli ixtisosliklar va bosqichlarda tahsil olayotgan kursantlarning o‘quv motivatsiyasi darajalari dinamikasi natijalari, N=336 %da

Baholanayotgan ko‘rsatkich	Daraja	O‘quv bosqichlari		
		1-bosqich	2- bosqich	3- bosqich
Motivatsiya darajasi	Yuqori	37,2	27,9	34,7
	O‘rta	32,3	34,5	33,2
	Past	30,5	37,6	32,1
Umumiy:		100	100	100

Baholanayotgan ko‘rsatkich	Daraja	Ixtisosliklar				
		tezkor-qidiruv	huquqbuzarliklar profilaktikasi	ekspert-kriminalistika	jazoni ijro etish	tarbiyaviy-psixologik ta‘minlash
Motivatsiya darajasi	Yuqori	39,4	36,6	37,8	34,2	38,9
	O‘rta	35,3	35,1	35,1	38,4	35,2
	Past	25,2	28,3	27,1	27,4	25,9
Umumiy:		100	100	100	100	100

Jadvalda ko‘rinib turganidek, o‘quv motivatsiya darajasi birinchi bosqich kursantlarda 37,2%ni, ikkinchi bosqichda 27,9 %ni, uchinchi bosqichda kursantlarning 34,7 %ni hamda past darajadagi motivatsiya 1 va 3-bosqichlarda 30,5 %ni va 32,1 %ni bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi bosqichda esa 37,6 %ni darajani ko‘rsatmoqda.

Ixtisosliklar bo‘yicha tahlil qilinganda, yuqori darajadagi motivatsiya faoliyatlarning tezkor-qidiruvda 39,4 % ni, tarbiyaviy-psixologik ta‘minlashda 38,9 % ni hamda ekspert kriminalistikada 37,8 %ni hamda past darajadagi o‘quv motivatsiya faoliyatlarning huquqbuzarliklar profilaktikasida 28,3 % ni, jazoni ijro etishda 27,4 % ni tashkil etdi (1-jadvalga qarang). Ushbu jadvaldan xulosa qiladigan bo‘lsak, 1-bosqichda bo‘lgan yuqori motivatsiya bosqichdan-bosqichga pasayish tendensiyasiga ega bo‘lib, o‘z o‘rnida darsliklarni past darajadagi o‘zlashtirishga olib kelishi mumkinligi boisidan ushbu tendensiya bilan ishlash, bosqichdan-bosqichga uni takomillashtirish, me‘yor darajasi ustida korreksion ishlarni amalga oshirish zaruratini beradi.

2-jadval

Turli bosqich kursantlarining A.Rean va V.Yakuninlarning «O‘quv faoliyati motivlarini o‘rganish» metodikasi natijalari, Kruskol-Uollis mezoniga ko‘ra, N=336

Shkalalar	1 bosqich	2 bosqich	3 bosqich	Kruskol-Uollis mezon darajasi	Kruskol-Uollis mezon darajasi ahamiyati
Diplom olish	41,7	39,5	67,3	5,48	0,05
O‘qishni muvaffaqiyatli davom ettirish	57,1	62,1	41,2	5,64	0,05
Kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta‘minlash	79,1	64,3	84,3	5,68	0,05
Ota-onaning roziligini olish	57,2	40,3	35,1	5,71	0,05

2-jadvalda A.A.Rean va V.Y.Yakuninning «O‘quv faoliyati motivlarni o‘rganish» metodikasi natijalari berilgan, bu bo‘yicha turli bosqich kursantlarning o‘rtasida tafovutlarni tahlil etadigan bo‘lsak diplom olish ($H = 5,48$; $p < 0,05$), o‘qishni muvaffaqiyatli davom ettirish ($H = 5,64$; $p < 0,05$), kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta‘minlash ($H = 5,68$; $p < 0,05$), ota-onaning roziligini olish ($H = 5,71$; $p < 0,05$) bo‘yicha ishonchli tafovutlarni ko‘rishimiz mumkin. «Diplom olish» va «kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta‘minlash» shkalalari bo‘yicha natijalar 3-bosqich kursantlarda yuqori bo‘lib, o‘ylaymizki ushbu bosqich yakuniy bosqichligi hamda kursantlar bitiruv malakaviy ishlariga tayyorgarlik ko‘rishlari va amaliy bo‘linmalarda faoliyatlarini davom ettirishlari bilan bog‘liq. «O‘qishni muvaffaqiyatli davom ettirish» shkalasi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar 2-bosqich kursantlardadir. Shuningdek, «ota-onaning roziligini olish» shkalasi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar 1-bosqich kursantlarida bo‘lib, kursantlar o‘qishga yaqinda kelishganligi hamda ularda moslashuv jarayoni bo‘lib o‘tayotganligi sabablidir.

3 –jadval

Turli ixtisosliklarda tahsil olayotgan kursantlarining A.Rean va V.Yakuninlarning «O‘quv faoliyati motivlarini o‘rganish» metodikasi natijalari, Kruskol-Uollis mezoniga ko‘ra, N=336

Shkalalar	TQF	HPF	EKF	JIEF	XFTPTF	Kruskol-Uollis mezon darajasi	Kruskol-Uollis mezon darajasi ahamiyati
Kasbiy faoliyat muvaffaqiyati	49,7	42,1	52,6	37,5	45,8	5,58	0,05
Ota-onaning roziligini olish	19,5	31,3	24,6	22,4	34,8	4,55	0,05
Intellektual qoniqish his etish	37,1	34,7	29,6	18,2	27,2	4,51	0,05

Izoh: TQF - tezkor-qidiruv faoliyati; HPF - huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati; EKF - ekspert-kriminalistika faoliyati; JIEF - jazoni ijro etish faoliyati; XFTPTF - xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta‘minlash.

Demak ixtisosliklar bo'yicha, kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlash ($H=5,58$; $p<0,05$), ota-onaning roziligini olish ($H=4,55$; $p<0,05$), intellektual qoniqish his etish ($H=4,51$; $p<0,05$) farqlar aniqlandi.

Tezkor qidiruv faoliyati ixtisosliklarda tahsil olayotgan kursantlarda kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlash va intellektual qoniqish his etish motivlari boshqalarga qaraganda yuqoriroq natijani tashkil etdi. Ota-onani roziligini olish motivi esa xizmat faoliyatini psixologik ta'minlash faoliyati kursantlarida yuqoridir.

Barcha kursantlarda yuqori malakali mutaxassis hamda chuqur va mustahkam bilimlarga ega bo'lish, intellektual qoniqish his etish motivlar yetakchi ekan. Shu bilan birga, darslarga tayyorgarlik, kursdoshlar bilan hamqadamlik, o'qituvchilarning hurmatiga sazovorlik va kursdoshlar uchun namuna bo'lish hamda o'qituvchining talablarini bajarish motivlari kursantlar uchun ahamiyatga ega emasdir. Bu esa, kursantlar bilan tashkil etiladigan tarbiyaviy-psixologik jarayonlarda ularda foydalanish samarasiz ekanligini bildiradi.

A.G.Maklakov va S.A.Chermyaninlarning «Moslashuvchanlik» ko'p darajali shaxs so'rovnomasi va V.A.Fedoroshonlarning «Tashkilotchilik va kommunikativ qobiliyatlarni aniqlash» metodikalari korrelyatsiya bog'liqlik aniqlandi.

4-jadval

Kursantlarning o'quv motivlari, «Moslashuvchanlik», «Tashkilotchilik va kommunikativ qobiliyatlarni aniqlash» shkalalariga bog'liqlik jihatlari, N=336

O'quv faoliyat motivlari	Asab-ruhiy barqarorlik	Kommunikativ sifatlar	Aхлоq me'yorlanganligi	shaxsiy moslashuv	tashkilotchilik
YMMB	0,11	0,03	0,41**	0,13	0,31*
DO	0,09	0,28*	0,12	0,04	0,07
O'MDE	0,02	-0,14	0,28*	0,31*	0,11
ITO'	0,34*	0,17	0,19	0,27*	0,14
DSO	0,02	0,19	0,13	0,46**	0,02
BEB	0,14	0,07	0,49**	-0,11	0,29*
KFMT	0,17	0,18	0,36*	0,04	0,04
ORB	0,18	0,02	0,14	0,45**	0,17
JQ	0,32*	0,12	0,19	0,42**	0,15
IQ	0,19	0,34*	0,46**	0,18	0,05

Izoh: *- $p\leq 0,05$; ** - $p\leq 0,01$. YMMB - Yuqori malakali mutaxassis bo'lish; DO - Diplom olish; O'MDE - O'qishni muvaffaqiyatli davom ettirish; ITO' - Imtihonlarni "yaxshi" va "a'lo" baholarga topshirish uchun o'qish;

DSO - Doimiy stipendiya olish; BEB - Chuqur va mustahkam bilimlarga ega bo'lish; KFMT - Kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlash; ORB - Ota-onaning roziligini olish; JQ - Jazodan qochish; IQ - Intellektual qoniqish his etish.

Korrelyatsiya koeffitsiyentiga ko'ra, yuqori malakali mutaxassis bo'lish axloqni me'yorlanganligiga ($r=0,41$; $p\leq 0,01$), tashkilotchilikka ($r=0,31$; $p\leq 0,05$), diplom olish kommunikativ sifatlariga ($r=0,28$; $p\leq 0,05$), o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirish axloqni me'yorlanganligiga ($r=0,28$; $p\leq 0,05$) va shaxsiy moslashuv imkoniyatlariga ($r=0,31$; $p\leq 0,05$), imtihonlarni «yaxshi» va «a'lo» baholarga topshirish uchun o'qish asab-ruhiy barqarorlikka ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) va shaxsiy moslashuv imkoniyatlariga ($r=0,27$; $p\leq 0,05$), doimiy stipendiya olish shaxsiy moslashuv imkoniyatlariga ($r=0,46$; $p\leq 0,01$), chuqur va mustahkam bilimlarga ega bo'lish axloqni me'yorlanganligiga ($r=0,49$; $p\leq 0,01$) va tashkilotchilikka ($r=0,29$; $p\leq 0,05$), kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini

ta'minlash axloqni me'yorlanganligiga ($r=0,36$; $p\leq 0,05$), ota-onaning roziligini olish shaxsiy moslashuv imkoniyatlariga ($r=0,45$; $p\leq 0,01$), jazodan qochish asab-ruhiy barqarorlikka ($r=0,32$; $p\leq 0,05$) va shaxsiy moslashuv imkoniyatlariga ($r=0,42$; $p\leq 0,01$), intellektual qoniqish his etish kommunikativ sifatlarga ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) va axloqni me'yorlanganligiga ($r=0,46$; $p\leq 0,01$) olib kelar ekan.

5-jadval

Kursantlarda o'quv motivlari va shaxsiy xususiyatlari bog'liqlik jihatlari, N=336

O'quv faoliyat motivlari	A-muloqotga moyillik	B- hissiy barqarorlik	C-hukmronlikka intilish	D- ijtimoiy etuklik	E- ijtimoiy mardlik	F- ishonuvchanlik	G-o'ziga ishonch	H-mustaqillik	I-qozgaluvchanlik	L-o'zini nazorat qilish
YMMB	0,09	0,13	0,36*	0,17	0,04	0,19	0,17	0,31*	0,13	0,34*
DO	0,35*	0,07	0,47**	0,02	0,17	0,05	0,14	0,18	0,08	0,01
O'MDE	0,12	0,03	0,17	0,12	0,18	0,09	0,01	0,15	0,16	0,29*
ITO'	0,04	0,32	0,16	0,08	0,23	0,03	-0,18	0,12	0,01	0,14
DSO	0,17	0,02	0,43*	0,02	0,24	0,07	0,13	0,09	0,07	0,12
BEB	0,05	0,01	0,44**	0,02	0,11	0,13	0,06	0,07	0,05	0,38*
KFMT	0,18	0,08	0,14	0,11	0,15	0,09	0,02	0,34*	0,09	0,13
ORB	0,03	0,16	0,19	0,07	0,19	0,37*	0,09	-0,04	0,21	0,17
JQ	0,14	0,36*	0,18	0,21	-0,07	0,14	-0,15	0,17	0,04	0,19
IQ	0,37*	0,15	0,14	0,36*	0,24	0,17	0,37*	0,01	0,19	0,06

Izoh: *- $p\leq 0,05$; **- $p\leq 0,01$. YMMB - Yuqori malakali mutaxassis bo'lish; DO - Diplom olish; O'MDE - O'qishni muvaffaqiyatli davom ettirish; ITO' - Imtihonlarni "yaxshi" va "a'lo" baholarga topshirish uchun o'qish;

DSO - Doimiy stipendiya olish; BEB - Chuqur va mustahkam bilimlarga ega bo'lish; KFMT - Kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlash; ORB - Ota-onaning roziligini olish; JQ - Jazodan qochish; IQ - Intellektual qoniqish his etish.

Korrelyatsiya koeffitsiyentiga ko'ra, yuqori malakali mutaxassis bo'lish ustunlikka ($r=0,36$; $p\leq 0,05$), mustaqillikka ($r=0,31$; $p\leq 0,05$) va o'zini nazorat qilishga ($r=0,34$; $p\leq 0,05$), diplom olish muloqotga moyillikka ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) va ustunlikka ($r=0,47$; $p\leq 0,01$), o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirish o'zini nazorat qilishga ($r=0,29$; $p\leq 0,05$), doimiy stipendiya olish ustunlikka ($r=0,43$; $p\leq 0,05$), chuqur va mustahkam bilimlarga ega bo'lish ustunlikka ($r=0,44$; $p\leq 0,01$) va o'zini nazorat qilishga ($r=0,38$; $p\leq 0,05$), kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlash mustaqillikka ($r=0,34$; $p\leq 0,05$), ota-onaning roziligini olish ishonuvchanlikka ($r=0,37$; $p\leq 0,05$), jazodan qochish hissiy barqarorlikka ($r=0,36$; $p\leq 0,05$), intellektual qoniqish his etish muloqotga moyillikka ($r=0,37$; $p\leq 0,05$), ijtimoiy yetuklikka ($r=0,36$; $p\leq 0,05$) va o'ziga ishonchga ($r=0,37$; $p\leq 0,05$) olib kelar ekan.

Dissertatsiya tadqiqotining maqsad va vazifalariga muvofiq, past va yuqori o'quv motivatsiya darajasidagi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlarining shaxsiy xususiyatlarini taqqoslandi. So'ng, shaxsiy xususiyatlarning motivatsiyaga ta'siri aniqlash maqsadida korrelyatsion tahlil o'tkazildi. Korrelyatsiya ko'rsatkichlari 7- jadvalda ko'rsatilgan (statistik ahamiyati * $p \leq 0,05$ va ** $p \leq 0,01$ darajada)

6– jadvall

Yuqori va past o'quv motivatsiya darajasidagi kursantlarning shaxsiy psixologik xususiyatlari ko'rsatkichlari, N=336


Shkalalar	past motivatsiya	yuqori motivatsiya
asab-ruhiy barqarorlik	*0,254	-0,215*
kommunikativ sifatlar	0,012	-0,167*
axloqni me'yorlanganligi	0,075	0,278*
shaxsni moslashuv imkoniyatlari	0,056	-0,217*
kommunikativlik	0,041	-0,182*
tashkilotchilik	-0,046	0,227*
Muloqotga moyillik	0,017	-0,194*
Hissiy barqarorlik-beqarorlik	0,168*	-0,147*
Hukmronlikka intilish-tobelik	-0,286*	0,245*
Ijtimoiy yetuklik, onglilik	-0,192*	0,234*
Ijtimoiy mardlik	0,0014	0,279*
Ishonuvchanlik – shubhalanish	0,193*	-0,346**
O'ziga ishonch – ishonmaslik	0,072	0,273*
Mustaqillik – tobelik	0,079	-0,374**
Qo'zg'aluvchanlik, zo'riqish-bo'shshish	0,062	0,361**

Korrelyatsiya koeffitsiyentiga ko'ra, asab-ruhiy barqarorlik ($r=-0,215$; $p \leq 0,05$), kommunikativ sifatlar ($r=-0,167$; $p \leq 0,05$), shaxsni moslashuv imkoniyatlari ($r=-0,217$; $p \leq 0,05$), kommunikativlik ($r=-0,182$; $p \leq 0,05$), hissiy barqarorlik ($r=-0,147$; $p \leq 0,05$), ishonuvchanlik ($r=-0,346$; $p \leq 0,01$), mustaqillik ($r=-0,374$; $p \leq 0,01$), muloqotga moyillik ($r=-0,194$; $p \leq 0,05$) shkalalari yuqori motivatsiyaga ta'siri salbiydir.

Yuqori motivatsiya bilan ijobiy munosabatda axloqni me'yorlanganligi ($r=0,278$; $p \leq 0,05$), tashkilotchilik ($r=0,227$; $p \leq 0,05$), ustunlikka ($r=0,245$; $p \leq 0,05$), ijtimoiy yetuklik, onglilik ($r=0,234$; $p \leq 0,05$), ijtimoiy mardlik ($r=0,279$; $p \leq 0,05$), o'ziga ishonch ($r=0,273$; $p \leq 0,05$), qo'zg'aluvchanlik, zo'riqish-bo'shshish ($r=0,361$; $p \leq 0,01$) shkalalari ekan.

Past motivatsiya bilan salbiy munosabatda tobelik ($r=-0,286$; $p \leq 0,05$), ijtimoiy yetuklik ($r=-0,192$; $p \leq 0,05$) shkalalaridir. Past motivatsiya bilan asab-ruhiy barqarorlik ($r=0,254$; $p \leq 0,05$), hissiy-barqarorlik ($r=0,168$; $p \leq 0,05$), ishonuvchanlik ($r=0,193$; $p \leq 0,05$) shkalalari ijobiy munosabatda ekan.

Yuqoridagi olingan natijalarga muvofiq Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlarida o'quv motivlari va shaxsiy xususiyatlari modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Kursantlarda o'quv motivlari va shaxsiy xususiyatlari modeli

Demak, xulosa qiladigan bo'lsak, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlarida o'quv faoliyati bilan bog'liq bilishga oid motivlarning differentsiyasi shaxsiy xususiyatlarni o'zlashtirish darajasi bilan bog'liq dominant integrativ ta'siriga muvofiq, axloqni me'yorlanganligi, tashkilotchilik, ustunlik, ijtimoiy yetuklik, onglilik, ijtimoiy mardlik, o'ziga ishonch, qo'zg'aluvchanlik xususiyatlarini ifodalanishi mualliflik yondashuv asosida dalillangan. Kursantlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish, yuqorida bayon qilingan fakt va qonuniyatlarni hisobga olgan holda, OTM o'qituvchilarining metodik ishlari, o'quv motivatsiyasini oshirish, o'zini mustaqil nazorat qilish va tartibga solish uchun instrumental asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

